

**TALABALARNING KASBIY-IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH
PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA****Xamidova Mohinur Ibrohim qizi****Termiz davlat Pedagogika instituti****Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich talim)yo'nalishi
2-bosqich magistranti****Email:mohinurxamidova506@gmail.com****Tel:+99899 586 991****<https://doi.org/10.5281/zenodo.7779669>**

Annotatsiya : Ushbu maqolada talabalarining kasbiy –ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogic muommolari,kasbiy tushunchalar ,qobiliyat va ijodkorlik tushunchalari ,kasbiy pedagogik bilimdonlikning komponentlari,kasbiy ijodiy qobiliyatlar tuzilmasi bloklari , kasbiy –ijodiy qobiliyatlar tizimi va Oliy ta'limda mustaqil fikrlovchi talabalarni yetishtirish kabilar tasniflandi.

Asrlar va sivilizatsiyalarning to'qnashuvida insoniyat hayotining barcha sohalari yangi bosqichga kirib borishga tayyorlanib bormoqda. Biz hozirgi vaqtdagi oliy pedagogik ta'lim tizimida talabalarni kasbiy tayyorlash sohasidagi o'zgarishlarning zarurati to'g'risida ta'kidlaymiz. Mazkur tayyorlovdagi asosiy masalalardan biri talabaning pedagogik madaniyati, uning pedagogik texnologiyalarni egallaganligi darajasi to'g'risidagi masalalar bo'lib, ularni hal etish kasbiy-pedagogik qobiliyatlarni, talaba shaxsining ijodiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishga bog'liqdir.

Mamlakatimizning yuridik asosiy hujjatlaridan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim" to'g'risidagi qonuni, "Asosiy umumiy ta'limning davlat ta'lim standartlari", shuningdek, Prezident farmonlari qonunchilik bazasini ta'lim tizimining amal qilishi uchun tayyorlaydi Mazkur hujjatlarning mohiyati davlat ta'lim tizimining rivojlanish strategiyasini belgilashdan iboratdir. O'qituvchilarni kasbiy tayyorlash sohasidagi davlat asosiy hujjatlaridan foydalanishning maqsadi qonunda belgilangan talablarga muvofiq ravishda oliy ta'lim muassasasidagi o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida asosiy prinsiplar va qonun-qoidalar belgilangan bo'lib, ularning asosida O'zbekiston ta'limining rivojlanishi qonuniy mustahkamlangan g'oyalarini amalga oshirishning strategiya va taktikasi quriladi [1].

Biz hozir shu qonunlarga tayangan holda bir qator shu mavzu bilan shug'ullangan insonlarning ishlarini ko'rib chiqamiz.

Sh.U.Qosimov tomonidan kasbiy tushuncha muayyan kasbiy ob'ekt, hodisa yoki jarayonlar xususiyatlarining umumiy va muhim belgilarini yaxlit holda ifodalashini ta'kidlagan. Shuningdek, kasbiy tushunchalarni umumiy kasbiy, xususiy kasbiy, aniq kasbiy va mavhum kasbiyga ajratgan. *Umumiy kasbiy tushunchalar* bir xil nom bilan ataladigan turdosh kasbiy ob'ektlar, hodisalar va jarayonlar majmuini o'z ichiga oladi. Ular ba'zan "kasbiy terminlar" deb ham yuritiladi. *Xususiy kasbiy tushunchalar* faqat bitta kasbiy ob'ekt, hodisa yoki jarayonga tegishli bo'ladi va faqat uning o'ziga xos ekanligini ifodalaydi. Xususiy kasbiy tushunchalar boshqa joyda takrorlanmaydi va bunday tushunchalarning har biri undan ajratib bo'lmaydigan muayyan nomga ega bo'ladi. *Aniq kasbiy tushunchalar* aniq kasbiy ob'ektlar yoki hodisalarni

aks ettiradi. *Mavhum kasbiy tushunchalar* esa fikrlash orqali kasbiy ob'ektlar yoki hodisalarning belgilari va xususiyatlarini ifodalaydi [2].

Kasbga qiziqish, undan manfaat topish insonning o'ziga, qolaversa otaonasi, jamiyatga kerakligini anglash muhim vazifalardan hisoblanadi. Bular esa yoshlar oldiga ko'plab vazifalarni qo'yadi:

o'zi uchun foydali bo'lgan kasbni to'g'ri tanlay olish;

bu kasbni yaxshi egallash va o'z kasbining ustasi bo'lib yetishish;

kasbiga doir ko'plab bilimlarni egallash;

kasbiga ijodiy yondasha olish;

mehnatsevar, o'z ishini tashkil qila oluvchi, kasbiga xos axloqni egallash;

o'zining shogirdlarini yaratishga intilish;

jamiyatga va ota-onasiga yaxshi nomlar bilan maqto'v olib kelish;

kelajakda nafaqaga chiqishga ehtiyojlar paydo bo'lganda o'zining ishini davom ettiruvchi shogirdlarni yaratish va o'z maktabini qoldirish;

kasbini o'ziga xizmat qiluvchi va kelajagini ta'minlovchi hunar sifatida shakllantirish.

Bu kabi vazifalar kasb-hunarni egallab borayotgan va yangi bir ko'rinishga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlashda eng muhim jarayonlar hisoblanadi [3].

Kasbiy-pedagogik bilimdonlik asosan to'rtta komponenti bilan tavsiflanadi:

shaxsga, insonga yo'nalganlik;

pedagogik voqelikni izchil idrok etashi;

fan sohasiga yo'nalganlik;

pedagogik texnologiyalarni egallash.

Kasb tanlash (kasbga yaroqlilik) - kasbiy ishning butun tizimida yakunlovchi bosqichdir. Ayni shu bosqichda xodimning tanlagan kasbga uzil-kesil muvofiqligi yoki nomuvofiqligi aniqlanadi. Lekin kasb tanlash (kasbga yaroqlilik) metodlaridan kasbga yo'naltirishning faqat yakunlovchi bosqichida foydalanish mumkin, deb hisoblash noto'g'ri bo'lur edi. U yoki bu ko'rikdan o'tmagan yigit yoxud qizga tanlagan kasbi zid bo'lishi ham mumkin

Shu boisdan kasb tanlash boshlang'ich bosqichda ham, shuningdek yakunlovchi bosqichda ham o'tkazilishi lozim.

Qobiliyat-shaxsning biron bir faoliyat yuzasidan bilim ko'nikma va malakalarni boshqalarga nisbatan tez va oson o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan psixologik xususiyatdir .

«Ijod» so'zining lug'aviy ma'nosi: «yaratish», «yangilikni kashf etish» so'zlariga monand keladi.

Ijodkorlik- sifat jihatdan yangi, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratuvchi inson faoliyatining yuqori jarayoni. Ijodkorlik o'zida insonning barcha jarayonda olib borgan mehnatida namoyon bo'lgan qobiliyatini ifodalaydi. Ijod turlari yaratish faoliyati bilan belgilanadi: ixtirochi, tashkilotchi, mehnati ilmiy va badiiy mehnat va boshqalar. Ijodiy faoliyat uchun imkoniyatlar ijtimoiy hodisa va munosabatlarga bog'liq.

Bugungi kunda olib borilayotga ta'lim sohasiga oid islohotlar o'z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan , texnika, san'at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadigan yuksak davlat ta'lim standartiga javob bera oladigan malakali kadrlar tayyorlashga bog'liq. SHunga ko'ra, jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqqan holda har bir talaba yoshlar ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim va zarurdir.

Kasbiy-ijodiy qobiliyatlar tuzilmasini hosil qiluvchi quyidagi bloklarni ajratish mumkin deb hisobladik:

Birinchi blok – tashkiliy qobiliyatlar. O'qituvchining ta'lim oluvchilarni birlashtirish, ularni mashg'ul qilish, majburiyatlarni taqsimlash, ishni rejalashtirish, amalga oshirilganlarga yakun yasash kabi ko'nikmalarida ifodalanadi.

Ikkinchi blok – didaktik qobiliyatlar. O'quv materialini, ko'rgazmali materiallar, jihozlarni tanlash va tayyorlash, o'quv materialini tushunarli, aniq, ifodali, ishonchli va izchil bayon etish, bilishga oid qiziqishlar va ma'naviy ehtiyojlarning rivojlanishini rag'batlantirish, o'quv-bilishga oid faollikni oshirish aniq ko'nikmalarida ifodalanadi.

Uchinchi blok – perseptiv qobiliyatlar, ta'lim oluvchilarning ma'naviy olamlariga kirib borish, ularning emotsional holatlarini ob'ektiv baholash, psixikalarining xususiyatlarini aniqlash ko'nikmasida ifodalanadi.

To'rtinchi blok – kommunikativ qobiliyatlar. Ular o'qituvchining ta'lim oluvchilar, ularning ota-onalari, hamkasblar, ta'lim muassasasi rahbarlari bilan pedagogik maqsadga muvofiq munosabatlarni o'rnatish ko'nikmalarida ifodalanadi.

Beshinchi blok – suggestiv qobiliyatlar. Ularning mohiyati ta'lim oluvchilarga emotsional-irodaviy ta'sir etishdan iboratdir.

Oltinchi blok – tadqiqotchilik qobiliyatlari, pedagogik vaziyatlar va jarayonlarni bilish va ob'ektiv baholash ko'nikmasida namoyon bo'ladi.

Yettinchi blok – ilmiy-bilishga oid qobiliyatlar, tanlangan sohadagi ilmiy bilimlarni o'zlashtirish san'atidan tashkil topadi.

Sakkizinchi blok – ijodiy qobiliyatlar, ularning mohiyati yuzaga kelgan muammoning o'z noan'anaviy yechimini ko'ra olish ko'nikmasidan iborat.

Kasbiy-ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi ularning namoyon bo'lishi belgilarining shunchaki miqdori o'sishini emas, balki ularning rivojlanishining bir darajasidan boshqasiga, yanada mukammal bo'lganiga o'tishini aks ettiradi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasi (tayyorgarlik, maslahat, yakuniy) kasbiy

omillar (ijtimoiy, madaniy, motivatsion) va kasbiy-ijodiy qobiliyatlar integratsiyasi asosida takomillashtirish imkonini berdi (1.1-jadvalga qarang):

1.1-jadval.

Kasbiy-ijodiy qobiliyatlar tizimi

№	Kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasi	Kasbiy omillar	Kasbiy-ijodiy qobiliyatlar tizimi	Kasbiy-ijodiy qobiliyatlar mazmuni
1.	tayyorgarlik	ijtimoiy	muloqot qilish (kommunikativ) qobiliyati	talabanning o'qituvchilar va kursdoshlari bilan auditoriya va auditoriyadan tashqari jarayonlarda guruhda ijobiy ruhiy iqlim yaratadi
			shaxsning ichki qobiliyati	o'z-o'zini bilish, tushunish va his qilish amalga oshiriladi
2.	maslahat	madaniy	kinestetik (teri-muskul) qobiliyat	talabanning o'z xatti-harakatlarini muvofiqlashtiradi, harakat ohangini his qilib yo'naltiradi, vaqtni, harakat sur'atini his qiladi
			Mantiqiy qobiliyat	mulohaza yurita oladi, murakkab vaziyatlarni yecha oladi, sababiyat va natijalarni tushunadi, voqelikda asosiyini ikkinchi darajalisidan ajrata oladi
3.	yakuniy	motivatsion	mahsuldor ijodkorlik	belgilangan qar qanday kasbiy muammo muvaffaqiyatli hal qilinadi
			evristik ijodkorlik	jamiyatda ro'y berayotgan kasbiy faoliyatga oid yangiliklarni dadil o'zlashtirish va targ'ib qilishni anglatadi, izchil amalga oshirish va bunda yangi holatda dadil harakat qilish qobiliyati, fikrlash jarayoni asosida tafakkurni rivojlan-tirish kuzatiladi
			kreativ ijodkorlik	ijtimoiy axamiyatta ega bo'lgan yangi nazariyalarni yaratadi, o'z fikrlari va takliflari bilan chiqadi

Kasbiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonining barqarorligi talabning yoshi, ma'lumotlilik darajasi, shaxsining individual xususiyatlari va oliy ta'lim muassasasining tarbiyaviy ishlarining xususiyatlariga, o'z tarbiyaviy ta'sirlarini talabalarning bundagi faolliklari bilan qanday umumlashtira olishiga bog'liqdir.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037) bilim olishda shaxslarni o'quv muassasasida o'qitish zarurligini qayd etar ekan, ta'limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi: - talaba bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'yimaslik; - o'qitishda jamoa bo'lib, o'quv muassasasida o'qitishga e'tibor berish: - bilim berishda talabalarning maylini, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish; - o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.

Oliy ta'limda mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirishni ta'minlovchi, uzluksiz ta'limning zamonaviy talablariga javob beradigan, o'zi tanlagan bilimlar sohasi yo'nalishi (ixtisosligi) bo'yicha ijodiy faoliyatiga tayyor, respublikaning ilmiy texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini ta'minlashga qodir, yuksak axloqiy va ma'naviy fazllatlarga ega, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni amalga oshiruvchi mustaqil ta'lim turidir.[4]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kasb tanlash, kasbning o'ziga xos jihatlarini anglab borish, kasbi orqali manfaat topish, kasbning sir asrorlari orqali ijodiy yondashishga ijodkorlikni rivojlantirishga erishish, talabalarning kelgusi faoliyatida o'z kasbiy ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirib borishlari pedagogik muammo sifatida yoritildi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida Qonuni. 2020 yil 23 sentabr. O'RQ-637-son
2. Qosimov SH.U. O'quvchilarda kasbiy tushunchalar shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari // Zamonaviy ta'lim. – Toshkent, 2017. - № 4. – B. 37-42.
3. Abduraxmanov F.R., Dusmuxamedova M.X. Kasb ta'limi islohotlari va kasb psixologiyasi // Zamonaviy ta'lim. – Toshkent, 2015. - № 5. – B. 34-40.
4. Migranova Elvira Aslamovna, Pozilova Shahnoza Xaydaraliyevna KASBIY PEDAGOGIK FAOLIYATGA KIRISH O'quv qo'llanma «Tafakkur-bo'stoni» nashriyoti Toshkent - 2018